

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA TUSHUNCHASI

*Normurodova Adiba Alisher qizi**Qarshi Xalqaro Universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida o'qituvchisi**Norxujayeva Muxlisa Erkin qizi**Qarshi Xalqaro Universiteti boshlang'ich talim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Yosh avlodda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, boy madaniy merosimiz tarixiy an'alarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, ularda tarbiyani har tomonlam kamol toptirish oldimizdagi birinchi va oliy maqsadimizdir. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida tarbiya turlari va vositalarini shakllantirish muhim jarayondir. Buning uchun pedagog dars jarayonida mavzu qonuniyatlarini, turli metodlar qo'llay olishi zarur va muhim masaladir.

Kalit so'zlar: Tarbiya, jarayon, shaxs, boshlang'ich ta'lim, axloqiy, estetik, aqliy, mehnat, jismoniy, ekologik, madaniy, etiket, mutafakkir, ta'lim, iqtisodiy, maqsad, vazifa.

Tarbiya – muayyan aniq maqsadga hamda ijtimoiy tarixiy tajriba asosida yosh avlodni, har tomonlama o'stirish, uning ongini, xulq-atvorini va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Avvalo, boshlang'ich ta'lim pedagogikasida tarbiya nima? Bu so'z zamirida ham chuqur ma'no bor. Biz pedagog sifatida har bir bolani shaxs qilib, ta'lim berib voyaga yetkazishimizda tarbiya muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida ta'lim va tarbiya teng olib boriladi. O'quvchilarga bilim, ko'nikma bilan birgalikda ulardagi shaxs sifatleri ham shakllantirilib boriladi. Xo'sh endi ta'lim jarayonida tarbiyaning qanday muhim tomoni bor? Avvalo ta'lim jarayonini olsak, ta'lim o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash va mustaqil fikrlashga o'rgatish, har tomonlama bilim berishni o'z ichiga oladi. Tarbiya esa – bolalarni har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq – atvorni tarkib toptirishga qaratilgandir. Birinchi prezidentimiz I. A. Karimovning “ Aql zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda faravonlik va tarqqiyot qaror topadi.” Degan fikrlari ham ta'lim – tarbiyani yuksaltirish, shu bilan birgalikda yosh avlodni barkamol qilib, har tomonlama komil qilib tarbiyalashni nazarda tutadi. Ta'lim – tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Barkamol avlodni tarbiyalash uchun pedagog, ustoz, murabbiylar har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rish kerak. Komil insonlarni voyaga yetkazish ta'lim – tarbiya sohasining asosiy sifatlarini asosiy maqsad va

vazifasi bo'lishi lozim. Tarbiya fanining predmeti - bo'lajak pedagoglar yosh avlodni ma'naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash ularda shaxsiy sifatlarni shakllantirish, ularda tarbiya haqida bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish tushunchalari haqida bahs yuritadi. Tarbiya shaxsda jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogic jarayondir. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlariga ega bo'lishini ta'minlash hisoblanadi. Avvalo insonda rivojlanadigan shaxsiy sifatlar nima? Har bir inson dunyoga kelganda individdir. U o'sgan sari undagi sifatlar shakllanib shaxsga aylanadi. Inson va hayvon o'rtasidagi farq ham undagi shakllangan shaxsiy sifatlaridadir. Tarbiya fanining maqsadi va vazifalari biz ma'naviyatli va madaniyatli avlodni voyaga yetkazish, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadigan avlodni voyaga yetkazishdir. Pedagoglar kelajak avlodni ma'naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalashi uchun avvalo o'zi shu fazilatlar egasi bo'lishi lozim. Biz bilamizki tarbiya tushunchasi keng qamrovli. Tarbiya arabcha "parvarish qilish", "o'rgatish", "ta'lim berish", "boshchilik qilish", "o'rgatish", "yo'naltirish" ma'nolarini bildiradi. Shu bilan birgalikda tarbiya o'zining bir qancha guruhlarini tashkil etadi. Axloqiy tarbiya; Aqliy tarbiya; Mehnat tarbiyasi; Estetik tarbiya; Ekologik tarbiya; Iqtisodiy tarbiya; Madaniy tarbiya. Bu tarbiya turlari kichik yoshdagi bolalar uchun alohida o'rin tutadi. Axloqiy tarbiya - kishilarning bir – birlariga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti – harakatlari, xulq – atvorlari majmuidir. Axloqiy tarbiya shaxs dunyoqarshini shakllantirining muhim omili hisoblanadi. Axloqiy tarbiya orqali har bir bola qayerda yoki qandaydir vaziyatda o'zini tuta bilishni, xatti – harakatlarini boshqara olishni o'rganadi. Shu bilan birgalikda gapirish madaniyati va etiket (kiyinish odobi, imidj) kabilar shakllanadi. Aqliy tarbiya bu jarayon boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida asta - sekinlik bilan rivojlanib boradi. Ya'ni ulardagi qiziqish, izlanish, tanqid, ko'p savol berish jarayonlarida o'quvchilarda aqliy tarbiya shakllanadi, shuningdek atrofda bo'layotgan ishlarni asta – sekin tafakkur qila boshlaydi, ulardagi mantiqiy fikrlash, kreativ fikrlash kabi jarayonlar shakllanadi. Bu ta'lim jihatidan o'quvchilardagi ilmiy bilimlarning muayyan hajmini o'zlashtirishda yetakchi o'rin tutadi. Mehnat tarbiyasi – shaxslarni mehnat qilishga, ishga nisbatan munosabatni shakllantirishga va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan tarbiya jarayonidir. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida kichik yumushlar orqali mehnatga muhabbatni uyg'otish ham pedagogni oldiga qo'ygan maqsadlaridan biridir. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida makatbga kelib – ketish, o'qish, yozish ularda jismoniy hamda aqliy tarbiyaning shakllanish jarayoni hisoblanadi. O'quvchilarda mehnat tarbiyasi shakllanishining bosqichlari bor. Ya'ni ularga, ular qila olmaydigan og'ir

yumushlarni qildiradigan bo'lsak, ularda mehnatga bo'lgan muhabbat va mehnatsevrlik, dangasalikka o'rin berishi mumkin. Shu sababli kichik yoshdagi o'quvchilarga yengil yumushlarni qildirib, masalan gullarga suv qo'yish, doska o'chirish va h.k kabi yengil yumush orqali ulardagi mehnatsevarlikni, mehnat tarbiyasini shakllantirish lozim. Estetik tarbiya – his – tuyg'ularni, tasavvurlarni va san'atga bo'lgan munosabatini rivojlantirish jarayonidir. Kichik yoshdagi o'quvchilarga estetik tarbiya nimaga kerak? Estetik tarbiya kichik yoshdagi o'quvchilarda ularning badiiy didini o'stirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish hayotiga go'zallikni olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir. O'quvchilarni ijodiy fikrlash orqali o'quvchida tasavvur, dunyoqarashini o'stirishda muhim rol o'ynaydi. Ekologik tarbiya – ekologiya so'zi grekcha tildan olingan bo'lib "oykos" uy yashash joyi va "logos" fan ta'limot degan ma'noni anglatadi. Ekologik tarbiya - insonlarni tabiatga, atrof – muhitga nisbatan mas'uliyatli va ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatishga qaratilgan jarayondir. Ekologik tarbiya kichik yoshdagi o'quvchilarga tabiatga bo'lgan muhabbatni, tabiatni asrashni, tabiat resurslaridan oqilona foydalanishni, tabiatga nisbatan mas'uliyatli bo'lishni o'rgatadi. Ekologik tarbiya atrof – muhitga bo'lgan munosabatini va umumiy madaniyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy tarbiya avvalo oila muhitida, so'ng ta'lim jarayonlarida shakllantirilib boriladi. Iqtisodiy savodxonlik insonni iqtisodiy jihatdan voqea - hodisalarni tahlil qilish, to'g'ri qaror qabul qilish kabi tushunchalar va bilim, ko'nikmalarini insonda shakllantiradi. Iqtisodiy tarbiya - shaxsning barkamol shakllanishining zarur shartidir. Shu bilan birgalikda har bir o'quvchini iqtisodiy tarbiyalash pedagogikada ham muhim o'rin tutadi. Avvalo biz kichik yoshdagi o'quvchilarga iqtisodiy tarbiyaning boshlang'ich qismini o'rgatishimiz lozim. Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy, hisob – kitob qilish qobiliyatini shakllantiradi. Iqtisodiy tarbiyada pedagogning roli qanday? Biz bilamizki, boshlang'ich ta'lim o'quvchilari o'quv qurollarini qanday tejashni bilishmaydi, masalan, rangli qog'ozni, rangli qalamlarini, plastilinni keragidan ortiq ishlatadilar. Bu borada pedagogning olib boradigan amaliy dars jarayoni va tushuntirishi natijasidagina o'quvchilar tejamkorlikka o'rganadilar. Madaniy tarbiya - keng ma'noda inson shaxsini shakllantirishga uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ishlar va harakatlardir. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida madaniy tarbiyaning o'quvchi oldidagi roli nimada deb o'ylaysiz? Avvalo, madaniyat deganda biz bilamizki, ko'z oldimizga insondagi fazilatlar, o'zini tuta bilishi, so'zlashish odobi, muomla madaniyati jamiyatdagi roli, tashqi muammolarga bo'lgan munosabati, xatti - harakati o'zidanda go'zal xulqli insonlarni madaniyatli kishilar deb ataymiz. Madaniy tarbiya o'quvchilarda

muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim – tarbiya jarayoni desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu kabi jarayonlar o'z – o'zidan shakllanib qolmaydi, bu sifatlarni o'quvchida shakllantirishda pedagog yetakchi rol o'ynaydi. O'quvchilarda bu kabi sifatlarni, ularga madaniy qadriyatlarni, an'analarni va axloqiy normalarni o'rgatadi. Pedagog o'zidagi bilimlarni, tajribalarni o'quvchilarga ulashib, ularda to'g'ri fikrlash, muomla madaniyati, guruh, jamoa ichida o'zlarini tuta bilishlarini shakllantiradilar. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayoning ilmiy tadqiqot metodlari. boshlang'ich ta'lim pedagogikasida ilmiy tadqiqot metodlarining o'rni qanday? Ilmiy tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish, shu bilan birgalikda amaliy ish jarayonlari orqali ularni yangi bilim, ko'nikmalar bilan qurollantirishdir. Sharq mutafakkirlarining tarbiyaga oid qarashlari. O'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida ta'lim – tarbiyaga oid boy merosga ega. Biz bilamizki, mutafakkirlarimiz insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, iymon – e'tiqod, mehr – oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy sifatlarni shakllantirish uchun yetarli tajribani to'plaganlar. Mana shunday allomalar jumlasiga Xoja Ahmad Yassaviyni kiritish mumkin. Xoja Ahmad Yassaviyning fikriga ko'ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o'zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu so'z zahirida rostgo'ylik, halollik, o'z – o'ziga talabchanlik fikrli ilgari surilgan desak adashmaymiz. Yana bir taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” deb ta'kidlaganlar. Bundan ko'rinib turibdiki tarbiya inson hayotida qanchalar muhim rol o'ynashi qadim – qadimdan ilgari surilgan. A.Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari yuqori sinflarda ta'lim va axloqiy tarbiya berish uchun darslik sifatida o'qitilgan. Zero, bu dars jarayoni o'quvchilarda umuminsoniy va diniy qadriyatlar, xalq og'izaki ijodi, shuningdek, buyul allomalarimizning hikmatli so'zlaridan imkon qadar keng foydalanishimiz va dars jarayonlarida bu kabi fikrlarni targ'ib qilishimiz kerak. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, “Milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne- ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz – shu xazinani ko'z qorachig'imizdek asrash va yanada boyitish”. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning ushu fikrlari asrimiz boshidan millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb masala ekanligini bilishimiz mumkin. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to'xtalib: “Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish

uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga tayanamiz". Biz ta'lim – tarbiya jarayonlarini hozirgi zamon talabiga binoan birinchi o'rindagi maqsad va vazifamiz deb bilamiz. Bu jarayonda ta'lim – tarbiya tizimida ko'pgina islohotlar ham olib boilmoqda. Yosh avlod tarbiyasi haqida so'z ketarkan Abdurauf Fitrat ham o'zining chuqur ma'noga ega fikrlarini ta'kidlab o'tganlar: "Xalqning aniq bir maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat - hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushushi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota – onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog'liqdir". Ta'kidlab o'tish joizki, tarbiya oiladan boshlanadi. Bunda ota - onaning roli juda ham muhim. Ota - ona farzandini yoshligidan boshlab uni har tomonlama tarbiyaviy jihatdan o'stirib borishi lozim. Bolada shu kabi fazilatlar shakllansagina millat takomillashib boradi. Zero yosh avlod millat ko'zgusi hisoblanadi. Biz anashunday takomillashgan jamiyat qurishni xohlar ekanmiz, oliada tarbiyalanuvchilarni har tomonlam sog'lom va barkamol etib tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlariga e'tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim jarayoni ta'lim tizimida juda katta ahamiyat kasb etadi. Bunda pedagogni yelkasiga ham anchagina mas'uliyat yuklaydi. Zero boshlang'ich ta'limdan keyingi ta'limni tashkil etishda ana shu fundamental bilim muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni – millat etishga xizmat etsin. – Toshkent, "Sharq", 1998
2. N. atayeva va boshqalar. Umumiy pedagogika.- Toshkent: "fan va texnologiya", 2012
3. A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent. 1992
4. Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat, 2008
5. Sh. Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24- yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. Toshkent: 2016y